ERKIN VOHIDOVNING “YOSHLIK DEVONI” G‘AZALLARIDA VAZN, QOFIYA VA RADIF MASALASI

Abdullayeva Safarxol O‘ktam qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti 2-kurs magistranti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19839820

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Erkin Vohidovning “Yoshlik devoni” tarkibidagi g‘azallarida vazn, qofiya va radif masalalari badiiy-estetik hamda poetik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoir ijodida aruz tizimining ramal, hazaj va muzori’ bahrlaridan foydalanish xususiyatlari yoritilib, ayniqsa ramal bahrining yetakchi o‘rni asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *g‘azal, aruz vazni, ramal bahri, hazaj bahri, muzori’ bahri, qofiya, radif, poetika, badiiy mahorat.*

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы метра, рифмы и редифа в газелях, входящих в сборник «Девон молодости» Эркина Вохидова, с художественно-эстетической и поэтической точек зрения. В исследовании освещаются особенности использования арузной системы, в частности бахров рамал, хазадж и музоре’, при этом особо обосновывается ведущая роль бахра рамал в творчестве поэта.*

Ключевые слова: *Газель, арузный размер, бахр рамал, бахр хазадж, бахр музоре’, рифма, редиф, поэтика, художественное мастерство.*

Annotation. *This article analyzes issues of meter, rhyme, and radif in the ghazals included in Erkin Vohidov’s collection “Youth Divan” from artistic-aesthetic and poetic perspectives. The study highlights the features of the use of the aruz system, particularly the ramal, hazaj, and muzori’ meters, with special emphasis on the dominant role of the ramal meter in the poet’s creative work.*

Keywords: *Ghazal, aruz meter, ramal meter, hazaj meter, muzori’ meter, rhyme, radif, poetics, artistic mastery.*

Kirish. She’r shoirning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari va sezgi olamini muayyan ritm, ohang hamda badiiy tasvir vositalari orqali ifodalovchi adabiy nutq shakli hisoblanadi. Unda fikrlar qisqa va ixcham tarzda berilsa-da, mazmun jihatdan chuqur va ko‘p qatlamli bo‘ladi. She’riy nutqning o‘ziga xosligi shundaki, u ma’lum vazn va badiiy me’yorlarga asoslanadi va shu jihati bilan oddiy so‘zlashuv uslubidan farqlanadi. Bundan tashqari, she’rda ko‘tarinki ruh, tushkunlik, quvonch yoki iztirob kabi turli hissiy holatlarning aks etishi o‘quvchining ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Lirik turga mansub asarda “ritmik element hisoblanuvchi vazn she’rning o‘lchovidir” [7. 341-342.] Izohli lug‘atda vazn atamasi “she’riy satrda she’rning ritm ohangi va tuzilishini belgilovchi bo‘g‘inlar soni va joylanishi” [5. 434-435.] mazmunini anglatuvchi tushuncha sifatida izohlanadi. Shuningdek, unda “muayyan xalqning vaznlari muayyan she’r sistemalarini vujudga keltiradi” degan fikr ham

ilgari suriladi. Mazkur omillar shoirlar ijodida turlicha aks etib, har bir ijodkorning poetik ifoda mahoratiga xos bo‘lgan individual jihatlarni namoyon qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Erkin Vohidov g‘azallarida vazn masalasini tadqiq etishda, eng avvalo, shoirning o‘z fikr va qarashlariga tayangan holda yondashish muhimdir. Zero, u “Shoiru she’ru shuur” asarida ushbu masalaga alohida e’tibor qaratib, shunday deydi: “Nega men aruzga qo‘l urdim? Bugun sodda, jo‘n she’riyatga emas, yuksak hislar, nozik san’atlar, “tagdor” misralar bilan to‘lgan she’riyatga talab paydo bo‘ldi. Men aruzga murojaat qilganda bir necha maqsadni ko‘zda tutgan edim.

Birinchidan, o‘zimni yangilash, odatiy fikrlash uslubidan, odatiy vazn va qofiyalardan uzoqlashish;

Ikkinchidan, klassik she’riyat maktabini o‘rganish, she’rga quyuq ranglar berish, obrazli fikrlash, sanjob misralar tuzish san’atiga yaqinlashish;

Uchinchidan, she’riyatdagi buyuk soddalik yo‘lida shoir dastlab oddiylikdan murakkablikka qarab boradi. Maqsadim – shu bosqichga qadam qo‘yish ham edi”. [1. 144-145] Yuqorida keltirilgan mulohazalarga tayangan holda aytish mumkinki, Erkin Vohidov ijodida aruz vaznida yaratilgan mumtoz she’riy namunalarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Aynan shu yo‘nalishdagi asarlar uning ijodkor sifatida keng tanilishida hamda g‘azalnavis shoir sifatida e’tirof etilishida muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Yuqorida bildirilgan fikrlarga asoslanib shuni ta’kidlash mumkinki, Erkin Vohidov ijodida aruz vaznida yozilgan mumtoz she’riy asarlar muhim o‘rin egallaydi. Aynan shu turdagi ijod namunalari uning shoir sifatida keng e’tirof topishida hamda g‘azal janrida ijod qiluvchi adib sifatida tanilishida asosiy omillardan biri bo‘lgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bizningcha, shoir aruzdagi she’rlari bilan 60-yillar adabiy muhitida muhim burilish yasadi. U zamonaviy o‘zbek adabiy tili imkoniyatlaridan samarali foydalanib, aruz an’anasining davomiyligini ta’minladi va uni keyingi avlodga boy badiiy meros sifatida yetkazdi.

Erkin Vohidov she’riyatida vazn, qofiya va radif masalalari muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘rganilgan. Xususan, V. Qodirovning “Hozirgi zamon o‘zbek g‘azallari poetikasining ayrim xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida shoir g‘azallarining vazni alohida tahlil qilinib, aruzdagi she’rlarning yutuq va kamchiliklari misollar asosida yoritilgan hamda muallifning ilmiy qarashlari bayon etilgan.

Shuningdek, Shahnoza Rahmonovaning “XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyatida aruzning poetik shakl va mazmun takomilidagi o‘rni” tadqiqotida ham Erkin Vohidov g‘azallarida aruz bahrlarining qo‘llanilishi statistik jihatdan tahlil

qilingan bo‘lib, ilova qismida vazn va janr bo‘yicha miqdoriy ko‘rsatkichlar keltiriladi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, shoir ramal, hazaj va muzore’ bahrlarida ijod qilgan, ularning qo‘llanish darajasi esa turlicha: eng kam muzore’, eng ko‘p esa ramal bahri uchraydi. Ramal bahri o‘zbek g‘azaliyotida keng tarqalgan vaznlardan biri hisoblanadi.

Erkin Vohidovning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan g‘azallarida mazmun va shakl uyg‘unligi, g‘oya hamda badiiy obrazlar mutanosibligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir she’riy me’yorlarga izchil rioya etgan holda, har bir baytni mustaqil badiiy yaxlitlik darajasiga olib chiqqanini kuzatish mumkin. Xususan, “Yoshlik devoni”ga debocha bo‘lgan g‘azalda ham ushbu vazn (ruknlari va taqti’i: foilotun foilotun foilotun foilun –V – –/–V – –/–V – –/–V –) yuksak mahorat bilan qo‘llangani e’tiborni tortadi:

Istadim sayr aylamoqni,
Men g‘azal bo‘stonida,
Kulmangiz, ne bor sanga, deb,
Mir Alisher yonida. [2. 3]

Erkin Vohidovning ijodida qo‘llanilgan ramal bahriga oid yana bir vazn ramali musammani maqsur (ruknlari va taqti'i: foilotun foilotun foilotun foilon – V – – / – V – – / – V – – / – V ~) ham ohangi latif va yoqimli bo‘lib, mumtoz kuylar ruhiga mos keladi:

Ikki qoshing o‘sma birlan
Bo‘ldi juft nargisli barg,
Ikki barging qoshida men
Titragayman misli barg. [2. 27]

E’tibor bilan qaralganda, baytlardagi oxirgi hijo nihoyatda cho‘zilganligi (barg) yaqqol seziladi.

Shoir ijodida ko‘p uchraydigan vaznlardan yana biri — hazaji musammani solim (ruknlari va taqti‘i: mafoilun mafoilun mafoilun mafoilun – – V – / – – V – / – – V – / – – V –) bo‘lib, shu vaznda yozilgan g‘azallarida muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi:

Seni yotlar tugul hatto – qilurman rashk o‘zimdan ham,
Uzoqroq termulib qolsam bo‘lurman g‘ash ko‘zimdan ham [2. 65]

deb boshlanuvchi Erkin Vohidovning “Rashkim” g‘azalida asosiy obraz sifatida lirik qahramon — oshiq gavdalanadi. Bu oshiq yoriga shu qadar qattiq bog‘langanki, uni nafaqat begonalardan, balki hatto o‘zidan ham rashk qiladi. Uning qalbidagi rashk

hissi shu darajada kuchliki, bu holat loladek qizarib ketgan yuzlarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi:

Ko‘zim yongay senga nargis – ko‘zin tiksa chamanlarda,
Yashirmam, lolaga rashkim ayon bo‘lgay yuzimdan ham.

Erkin Vohidovning muzori‘i musammani axrab (maf’uvlu foilotun maf’uvlu foilotun – – V/ – V – – / – – V / – V – –) vaznida yozilgan “G‘uncha” g‘azali go‘zal tashbehlarining boyligi va mubolag‘alarning rang-barangligi bilan ajralib turadi. Asar kompozitsiyasi oshiq qalbi bilan ochilish arafasida turgan “g‘uncha” o‘rtasidagi samimiy muloqot asosida qurilgan. Darhaqiqat, chin oshiqlargina — qalbi ilohiy muhabbat nuri bilan to‘lgan insonlar — har bir narsadan ma’no va mo‘jiza topa oladi. G‘azalning dastlabki baytida esa o‘ziga yaqin sirdosh va chin do‘st izlayotgan oshiq, ishq gulzorida “barq ostidan muloyim boqib turgan g‘uncha” bilan dardlashish, unga qalbidagi sirlarni ochish istagini ifodalaydi:

Barg ostidan muloyim
Boqqan iboli g‘uncha,
Ne sirni saqlagaysan
Bag‘ring nechun tuguncha. [2. 9]

Shu bilan birga, shoir misralarida qofiya tizimi ham an’anaviy aruz qoidalariga muvofiq tarzda tashkil etilgan. Ma’lumki qofiya tarkibiy qismlarning ifodalanish xususiyatidan kelib chiqib *mujarrad qofiya, muqayyad qofiya, murdaf qofiya, muassas qofiya* singari turlarga ajratiladi. [3. 160; 4. 128] Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shoir she’rlarida mujarrad va muqayyad qofiya turlari keng hamda faol tarzda qo‘llanadi. Mujarrad qofiyani yuzaga keltirishda esa raviy sifatida cho‘ziq unlining kelishi zarur hisoblanadi. Masalan:

O‘ltirar sochin tarab yor
Chashmaning o‘trusida,
Chashma o‘z aksin ko‘rar
Yor chehrasin ko‘zgusida. [2. 17]

Mazkur baytda cho‘ziq “vov”, ya’ni “u” tovushi raviy vazifasida kelgan. Atoyi g‘azalining matla’sini eslatadigan ushbu baytda mubolag‘aning g‘uluv turi orqali yor go‘zalligining nihoyatda yuqori darajasi tasvirlangan.

Kiprigingdan o‘q uzib
Ko‘ksim aro zahm aylading,
Dilni zabt etmoqqa balki
Chox o‘yib lahm aylading. [2. 79]

Muqayyad, ya’ni qaydli qofiya qisqa unli tovushdan keyin keladigan ikki undoshning birikishidan hosil bo‘ladi. Raviy harfidan oldin joylashgan undosh

“qayd” deb ataladi va aynan shu xususiyat tufayli ushbu turdagi qofiya qaydli qofiya nomi bilan yuritiladi. Keltirilgan yuqoridagi bayt esa bunga aniq misol bo‘lib xizmat qiladi.

Voh ajabkim, zulfingga dil
Qayta-qayta bo‘ldi band.
Necha-necha band bo‘lishdan
Ul yemabdir zarra pand. [2. 80]

Ushbu g‘azalda ham muqayyad qofiyaning chiroyli namunalari uchraydi. V. Qodirov o‘z nomzodlik dissertatsiyasida Erkin Vohidovning “Tong g‘azali”dagi qofiya tizimini tahlil qilib, ularni “varaqlabdur–sharaqlabdur–yaraqlabdur” shaklida mutlaqi mujarrad qofiya, “taroqlabdur–yiroqlabdur–quchoqlabdur” ko‘rinishida esa ridfi asliyli mutlaq qofiya turlariga ajratadi. Muallif fikrlarini davom ettirar ekan, “misolimizdagi mutlaqi mujarrad qofiyalarda raviy “q” dan oldingi “a” ni qofiya talabi bilan “o” ga aylantirish mumkin edi va g‘azal shunda bir turdagi qofiyalarga ega bo‘lardi” [6. 51]

Bizningcha, shoir bu o‘rinda g‘azalga xos mumtoz poetik ruhni aynan qofiya vositasida ifodalashga intilgan va shu tizim orqali misralarga zamonaviy ohang baxsh eta olgan. Shuningdek, “charaqlabdur” va “yaraqlabdur” so‘zlaridagi “a” unlisini “o” ga almashtirish ularning ma’nosini ham o‘zgartiradi. Ya’ni ular “choroqlabdur – yoroqlabdur” tarzida qo‘llansa, mazmun boshqa tus oladi. Bunga Erkin Vohidovning “Yoshlik devoni”dan o‘rin olgan “Sarv”, “Hijron yuki”, “Yoshligim”, “Senga baxtdan taxt tilarman”, “Xayol”, “Uzum” kabi g‘azallari ham misol bo‘la oladi.

Qofiya san’atlaridan yana biri tajnisli qofiya bo‘lib, u “Dilda ishq daryochadir” nomli g‘azalda quyidagicha namoyon bo‘ladi:

Ahli she’r balki kitobim nazmi ishq deb ochadir,
Yo‘q kitobim sevgining devoniga debochadir.
Ko‘zlarining orzusida tuzdim navo, zebo sanam,
Nastarin ko‘z ochib aytsin, she’ri ham zebochadir.
Balki u zebocha ermas, balki u bir g‘unchadir,
Husning oftobida, ammo kun sayin zeb ochadir. [2. 82]

Anglash mumkinki, keltirilgan misollarda “debochadir – deb ochadir” hamda “zebochadir – zeb ochadir” kabi birliklar o‘zaro uyg‘unlashib, murakkab tajnisli qofiyani yuzaga keltirgan.

Qayd etish joizki, Erkin Vohidov g‘azallarida qofiyadosh so‘zlar nafaqat ritmik uyg‘unlikni ta’minlaydi, balki lirik qahramon kechinmalarini ham ochadi. Shoir mumtoz an’analarni davom ettirib, musajja va tajnisli qofiyalardan mahorat bilan

foydalanadi, shu bilan birga uslubiga yangicha ohang va o‘ziga xos joziba bag‘ishlaydi.

Ma’lumki, “qofiyadan so‘ng kelib, aynan takrorlanuvchi so‘z yoki so‘zlar birikmasi radif ” [3. 156] hisoblanadi. She’rshunoslikda radif mumtoz lirik asarlarda g‘oyaviy va tematik mazmunni kuchaytirib, ularning shakl va mazmun jihatdan izchil hamda uyg‘un ifodalanishini ta’minlovchi muhim poetik unsur sifatida qaraladi. Erkin Vohidovning “Yoshlik devoni”da jamlangan 73 ta she’rdan 50 tasida radif qo‘llangan. Diqqatga sazovor jihati shuki, mumtoz an’analar asosida ayrim g‘azallar radifga tayangan holda nomlangan. “Surma”, “Sarv”, “Ko‘zing”, “Barg”, “Parishonlik”, “Uzum” kabi g‘azallar shular jumlasidandir.

Shoir ijodida radif tuzilish jihatidan turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan, “Nasihat” g‘azalida radif faqat “qil” so‘zi bilan ifodalansa, “Quyosh” g‘azalida “bo‘lsin quyosh” ko‘rinishidagi birikmali radif misralarning ohangdorligini kuchaytirib, mazmunga alohida urg‘u beradi.

Qo‘lni ishga mohir etma,
Tilni gapga usta qil,
Ishni bir qilgan joyingda
Gapni albat yuzta qil. [2. 84]

Va shuningdek,

Dilbarim husniga ko‘kda
Mahliyo bo‘lsin quyosh,
Mahliyo emas, ko‘yida
Bir gado bo‘lsin quyosh. [2. 85]

Erkin Vohidov g‘azallarida yuqorida qayd etilganidek, radifning birikmali shakli nisbatan kamroq uchraydi. Shoirning “Sayr”, “Na qilsin”, “Quyosh” nomli g‘azallarida esa mazmun va ifoda jihatidan radifning aynan birikma ko‘rinishdagi qo‘llanishi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Erkin Vohidov ijodida radif she’riy ifodaning muhim vositalaridan biri bo‘lib, g‘azallarning g‘oyaviy hamda badiiy ta’sir kuchini sezilarli darajada oshiradi. Shoir mumtoz adabiyot an’analariga tayangan holda radifning turli ko‘rinishlaridan ustalik bilan foydalangan va bu holat uning asarlariga o‘ziga xos ohang hamda mazmuniy izchillik baxsh etgan. “Yoshlik devoni”dagi ko‘plab she’rlarda radifning faol ishlatilishi, ayrim g‘azallarning esa aynan radif asosida nomlanishi shoir ijodiy mahoratini yaqqol ifodalaydi. Umuman, Vohidov she’riyatida radif nafaqat ritmik uyg‘unlikni ta’minlaydi, balki mazmunni yanada chuqurlashtiruvchi muhim poetik unsur sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Erkin Vohidovning “Yoshlik devoni”ga kirgan g‘azallarida vazn, qofiya va radif bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘lib, shoirning yuksak badiiy mahoratini yaqqol ko‘rsatadi. U aruz tizimidagi ramal, hazaj va muzori’ kabi bahrlar imkoniyatlaridan unumli foydalanib, ayniqsa ramal bahrida yaratilgan g‘azallarda shakl va mazmun uyg‘unligini ta’minlay olgan. Qofiya tizimi an’anaviy me’yorlarga tayangan bo‘lsa-da, tajnis va murakkab qofiya shakllari orqali she’rning badiiy ta’sir kuchi yanada oshirilgan. Radifning keng qo‘llanishi esa g‘azallarning ritmik yaxlitligini mustahkamlab, g‘oyaviy mazmunini chuqurlashtirgan. Umuman olganda, Vohidov mumtoz an’analarni davom ettirgan holda ularni zamonaviy ifoda uslubi bilan uyg‘unlashtirib, o‘ziga xos ijodiy yangilanishga erishgan. Xulosa qilib aytganda, uning aruzdagi izlanishlari o‘zbek she’riyatida an’anaviy shakllarning uzluksizligini saqlagan holda, ularga yangi ruh va mazmun bag‘ishlagan bo‘lib, shoir g‘azallari milliy adabiyot taraqqiyotida muhim estetik hodisa sifatida e’tirof etilishi tabiiydir. Yana bir muhim jihat shundaki, Erkin Vohidov vazn, qofiya va radifni alohida unsurlar sifatida emas, balki yaxlit poetik tizim tarzida qo‘llaydi. Natijada shakl va mazmun o‘rtasida mustahkam uyg‘unlik yuzaga keladi. Bu holat shoir g‘azallarining nafaqat texnik mukammalligini, balki ularning estetik ta’sir kuchini ham belgilab beradi.

1-ilova

“Yoshlik devoni” g‘azallarida vazn, qofiya va radif xususiyatlari

Poetik unsur	Turi / ko‘rinishi	Xususiyati	Badiiy vazifasi	Misol (umumiy)
Vazn (aruz)	Ramal bahri	Eng ko‘p qo‘llangan, ohangi yumshoq	Lirik kayfiyat, sog‘inch, romantika ifodasi	“Istadim sayr aylamoqni…”
	Hazaj bahri	Barqaror ritm, takroriy ohang	Muhabbat va ichki iztirobni ifodalash	“Seni yotlar tugul…”
	Muzori’ bahri	Murakkab va o‘zgaruvchan ritm	Falsafiy fikr va umumlashma	“G‘uncha” g‘azali
Qofiya	Mujarrad qofiya	Cho‘ziq unliga asoslanadi	Ohangdorlik va soddalik	“ko‘zgusida – o‘trusida”
	Muqayyad qofiya	Undosh bilan mustahkamlangan	Ritmik barqarorlik	“band – pand”
	Tajnisli qofiya	Shaklan o‘xshash, ma’nosi turli	Ko‘p qatlamli ma’no yaratadi	“debochadir – deb ochadir”
Radif	Sodda radif	Bitta so‘zdan iborat	Takroriy urg‘u, ohangdorlik	“qil”
	Birikmali radif	So‘z birikmasi shaklida	Mazmunni kengaytirish	“bo‘lsin quyosh”
	Nomlovchi radif	G‘azal nomi bilan bog‘liq	Kompozitsion markaz	“Ko‘zing”, “Barg”

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Воҳидов Э. Шоиру шеъру шуур. – Тошкент: Ёш Гвардия, 1987. – 224 б.
2. Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1969. – 160 б
3. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 160 б.
4. Исоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006. – 128 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. С ҳарфи. 2005. – 611 б.
6. Қодиров В. Ҳозирги замон ўзбек поэтикасининг айрим хусусиятлари: филол. фан. номз... дис... – Т, 1993. – 129 б.
7. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиев М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 400 б.
8. Diss.natlib.uz